



NODIRA HAYOTI VA IJODINING BADIY QIMMATI

Abdurasulova Tursunoy Abduvoxid qizi

*Qo'qon Universiteti Andijon Filiali IT va ijtimoiy-gumanitar fanlar fakulteti
Filologiya va tillarni o'qitish o'zbek tili yo'nalishi 25-09-guruh talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqola o'zbek mumtoz adabiyotining yirik vakilasi Nodira (Mohlaroyim)ning hayoti va ijodi yoritiladi. Shoiraning yashagan davri, ijtimoiy muhit, uning saroy hayotidagi o'rni hamda she'riyatining asosiy g'oyalari tahlil qilinadi. Nodira ijodida muhabbat, sadoqat, insoniylik, sabr-toqat va ayol qalbining nozik kechinmalari badiiy ifoda etilgani ko'rsatib beriladi. Shuningdek, uning ma'rifatparvarlik faoliyati va o'zbek adabiy merosiga qo'shgan hissasi ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Nodira, Mohlaroyim, o'zbek mumtoz adabiyoti, lirika, muhabbat, sadoqat, ayol shoir, Qo'qon xonligi, ma'rifat, g'azal.

Abstract. This article covers the life and work of Nodira (Mohlaroyim), a major representative of Uzbek classical literature. The period in which the poetess lived, her social environment, her place in court life, and the main ideas of her poetry are analyzed. It is shown that love, loyalty, humanity, patience, and the delicate feelings of a woman's heart are artistically expressed in Nodira's work. Her enlightening activities and contribution to the Uzbek literary heritage are also revealed.

Keywords: Nodira, Mohlaroyim, Uzbek classical literature, lyrics, love, loyalty, female poetess, Kokand Khanate, enlightenment, ghazal.

Аннотация. В данной статье рассматривается жизнь и творчество Нодир (Мохларойим), выдающейся представительницы узбекской классической литературы. Анализируется период жизни поэтессы, её социальное окружение, место в придворной жизни и основные идеи её поэзии. Показано, что любовь, верность, гуманность, терпение и тонкие чувства



женского сердца художественно выражены в творчестве Нодир. Также раскрывается её просветительская деятельность и вклад в узбекское литературное наследие.

Ключевые слова: *Нодира, Мохларойим, узбекская классическая литература, лирика, любовь, верность, поэтесса, Кокандское ханство, просвещение, газель.*

Jahon adabiyoti tarixi xotin-qizlar orasidan yetishib chiqib ma'naviyat rivojiga munosib hissa qo'shgan ko'pgina iste'dodli qalam sohiblarini biladi. Buning yorqin misolini Sharq adabiyotida ham uchratamiz. Birgina XIX asr bo'sag'asi va birinchi yarmida Qo'qonda Uvaysiy, Dilshod, Mahzuna va Nodiradek taniqli shoiralarning ijod etganligi buning yorqin dalilidir. Shular ichida Nodira ham iste'dodli shoir, ham madaniyat va adabiyotning homiylaridan biri sifatida ajralib turadi. U mumtoz adabiyotimizning boy an'analari hamda umr yo'ldoshi, iste'dodli shoir Amiriyning kuchli ta'sirida boy adabiy meros qoldirdi.

Nodira haqida tarixiy-badiiy asarlarda ("Tarixi muhojiron", "Voqeoti Muhammad Alixon"), dostonlarda ("Half Gulshan") ta'rifu tahsinlar aytilgan. Zamon shoir va shoiralari unga bag'ishlab vasfiy qasidalar, g'azallar bitdilar. Xofiz-u xonandalar shashmaqom yo'llarida uning zebo g'azal, muxammas va firoqnomalarini ijro etdilar. Asarlaridan ilm-ijod ahli, keng kitobxonlar ommasi ozmi-ko'pmi bahramand bo'lib keldi. Akademik Aziz Qayumovning "Qo'qon adabiy muhiti", V. Abdullayevaning "O'zbek adabiyoti tarixi", To'xtasin Jalolovning "O'zbek shoiralari", asarlarida uning adabiy ijodi ancha keng yoritilgan. 1963-yili shoiraning ikki jildlik devoni, 1993-yili "Ey, sarvi ravon" nomida g'azallari majmuasi chop qilingan.

Biz keying yillargacha Nodiraning ismi Mohlaroyim bo'lgan derdik. Biroq qo'qonlik olim va tarixchi Po'latjon Domulla Qayumovning qancha yillar o'tib, 1998-yili nashr etilgan uch jildlik "Tazkirai Qayyumiy" asarida Nodiraning asl ismi Mohlaroyim emas, balki Komila bo'lganligi aytiladi. Uning fikricha, Mohlaroyim degani sharaflil laqab bo'lib, o'rdadagi (xon saroyidagi) aslzoda



ayollarni hurmatlab aytiladigan ismdur. Masalan, “Mingoyim,Hokim oyim,Qozoq oyim “ kabilar. Demak,ismi Komila, sharaflı unvoni Mohlaroyim, taxallusi Nodira bo'lgan bu mo'tabar shoira 1792-yili Olimxon va Umarxonga tog'a bo'lmish minglar sulolasining to'ng'ich hukmdori Norbo'tabiyning ukasi,o'sha davrda Andijonga hokim bo'lib turgan Rahmonqulbiy xonadonida dunyoga keladi.

Norbo'tabiy o'rniga xonlik taxtiga o'tirgan Olimxon 1808-yili o'z ukasi Said Umarbekni fazilat, latofat va zebolikda ovoza bo'la boshlagan Moylaroyimga uylantirgan. Nodira 30 yoshlarga borganida Umarxon og'ir xastalikka uchrab,vafot etadi. Shundan so'ng shoira valiaxd o'g'li Muhammad Alixon hali yosh bo'lganligi uchun mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy hayotida ishtirok etadi. Nodira Umarxon bilan 15 yil birga nafas olib, birga ijod qildi.Biroq, bu ular o'rtasida aslo farq yo'q degani emas.Biri cheksis ustunliklarga ega bo'lgan feadol hukmdori, ikkinchisi inon-ixtiyori uning tasarrufida bo'lgan malika va shoiradir.

Bir tomonda -saroy hashamati, Umarxonning hukmdor sifatidagi qattiqqo'lligi, ikkinchi tomonda esa, qashshoq,g'arb va benavo fuqaro. Atrofda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga aql-idroq ko'zi bilan qarashga intilgan Nodiraning o'ylanmasligi , iztirob chekmasligi,chora izlamasligi mumkin emas edi. U o'zining shunday ruhiy holatlarini she'riy misralarda ifodalagan.Muhimi shundaki, garchand o'zi saroy malikasi,aslzodalar tabaqasi vakili bo'lsa ham, u o'ziga hammadan ham yaqin bo'lgan Umarxonga ta'sir o'tkazishni unutmadi. Saroyda sodir bo'lib turgan bedodliklarga hukmdorning diqqatini qaratib, adolatpesha va saxovatli bo'lishga chaqiradi:

Shoh uldurki,raiyatga tarahhum qilsa,
Yo'q esa qoidai amnu amon barcha abas,-
Fuqaro holig'a gar boqmasa,har shoh, anga,
Hashmatu,saltanatu,rif'atu shon barcha abas.

Deya achchiq ta'nali baytlarni yozishga jur'at etadi.

Nodira ijodi adabiyot darsliklarida o'zbek mumtoz lirikasining eng nafis namunalaridan biri sifatida baholanadi.Adabiyotshunoslar ta'kidlashicha, Nodira



ijodida ayol qalbining ichki dunyosi juda nozik va ta'sirchan tasvirlangan. U muhabbatni faqat shaxsiy tuyg'u sifatida emas, uni ma'naviy yuksaltiradigan kuch deb talqin etadi. Shu jihatdan uning g'azallari yoshlarni mehr-oqibatli, sadoqatli va sabrli bo'lishga undaydi.

Nodira 1842-yilda Qo'qon shahrida vafot etgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Nusratullo Jumaxo'ja va Iqboloy Adizovalarning "O'zbek adabiyoti tarixi" darsligi;
- 2.8-9-sinf Adabiyot darsligi;
- 3.Qayumov A."O'zbek adabiyoti tarixi"